AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRIDA TALABALARDA KREATIV QOBILIYATNING SHAKLLANISHIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

[1]Dilshoda Jalilova Ural qizi [2]Shaxnoza Jalilova Ural qizi
[1]Toshkent shahar Yangihayot tumanidagi 330-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich ta’lim fanlar o ‘qituvchisi [2]Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU 4-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.10040605

Annotatsiya. *Mazkur maqola talabalarda kreativ qobiliyatning shakllanishi va rivoj topishi uchun integrativ yondashuvning ahamiyati borasidagi fikr-mulohazalarga bag‘ishlanadi. Shuning barobarida talabalarning o‘quv va kognitiv ijodiy faolligini oshirish muammosini ham ko ‘rib chiqadi. Bu zamonaviy jamiyatning o‘quv jarayonida integratsiyalashgan darslardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojning sabablarini o‘rganadi. Hamda zamonaviy ta’limning bugungi zamonaviy ishtirokchilari shaxsini — talabalarning shaxsini ma’naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega masala sifatida tahlil olib boradi.*

Kalit so‘lar: *Kreativlik, kreativ qobiliyat, intellekt, ijod, ijodiy tasavvur, intellektual faoliyat, integrativ yondashuv*

Bugungi kunda zamonaviy talaba shaxsini ma’naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik va ustuvor masala sifatida kreativlik, kreativ qobiliyatlar, intellekt, intellektual faoliyat, ijod, ijodkorlik, intellektual ijodkorlik, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, ijodiy tasavvur, intellektual-ijodiy jarayon, faoliyat kabi tushunchalarni o‘rganadi.

Davlatimiz rahbari shu boisdan ham talaba-yoshlarni hozirgi zamonning talablariga munosib javob bera oladigan holatda bo‘lishlarini, shu talablarga muvofiq yangicha ishlash va fikrlashga, izlanish-u tashabbuskorlik va tadbirkorlik ruhida ta’lim-tarbiya olishi zarurligini ta’kidlaydilar. Aynan shuning uchun ham ta’lim tizimi va mazmunini takomillashtirish, uni real hayotga yaqinlashtirish, shuningdek, yoshlarda intellektual-ijodiy rivojlanish, ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatni, bir so‘z bilan aytganda **kreativ qobiliyatini** o‘stirish lozimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining so‘nggi yillarda qabul qilingan qator qarorlari va farmonlarida ham ushbu g‘oya yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Talabalar kreativ qobiliyatini shakllanganligi katta ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lib, u barkamol avlodning bazaviy sifatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishning omilidir. Zero, kreativ qobiliyatning rivojlanishi“ shaxs”ning ma’naviy sohasi bilan bog‘liq. Bu faol faoliyat jarayonidagi axloqiy, intellektual va estetik talablar hamda manfaatlarning shakllantirilishi va qanoatlantirilishidir.

Biz talablarning kreativ qobiliyatini shakllantirishda integrativ yondashish natijasida samarali natijaga erishishimiz mumkin. Integratsiyalashgan darslarning imkoniyatlarini oshirib esa talabalarning ijodiy qobiliyatini yuksaltirishga muvaffaq bo‘lamiz. Bu bilan talabalar dunyo rasmini yaxlit idrok etishlarida muammoga duch kelmaydilar.

Respublikamizda amalga oshirilib kelinayotgan zamonaviy ta’lim tizimi yuksak kadrlarni shakllantirishga qaratilgan. Buni inobatga olib aytadigan bo‘lsak, doimiy o‘zgaruvchan shart-sharoitlarda eng mazmunli mehnat faoliyatini ko‘rsatishga qodir, dunyoning rasmini yaxlit ko‘rishga ega bo‘lgan intellektual rivojlangan shaxslarni tarbiya qilish bizning ilk ustuvor vazifalarimizga aylanmoqda. Shu sababli biz ta’lim jarayonini tashkil qilishda fanlarning tarqoqlik

holatini oldini olishimiz kerak. Bu tarqoqlik talablarning dunyoqarashining parchalanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayni vaqtda dunyoda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot integratsiyasi tendensiyalari tobora ilgarilab bormoqda. Muammoni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘pincha ma’lum bir o‘quv predmeti doirasida bir xil tushuncha turlicha ta’riflanadi. Ilmiy atamlarning bunday noaniqligi o‘quv materialini idrok etishni qiyinlashishiga sabab bo‘ladi. O‘quv rejalarining nomuvofiqligi esa turli fanlar bo‘yicha bir xil ta’lim ma’lumotlarining turli akademik vaqtlarda o‘rganilishiga sabab bo‘ladi.

Shunday qilib, bugungi rivojlanish bosqichida ob’yektlarning tarqoq holatda turgani ularning bir-biri bilan integratsiyaga kirishishi lozimligini ko‘rsatadi. Bu amaliy jarayon talabalarda kreativ qobilayatning shakllanishida yuqori ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonning yaxlitligining konseptual asoslarini A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, S.T.Shatskiylar yaratishgani bizga ma’lum. Aynan o‘tgan asrning 20-50-yillarida o‘qituvchilar amaliyotida talabalarning, o‘quvchilarning o‘quv jarayonlarining birligi va o‘zaro bog‘liqligining mohiyatini ular ochib berdilar. Bu olimlarimiz shaxsni har jihatdan rivojlantirish zarurati haqidagi konseptual asoslardan kelib chiqdilar. A.S.Makarenkoning fikricha, shaxs qismlarga bo‘lib rivojlanmaydi, balki u duchor bo‘lgan ta’sirlarning umumiy miqdoridan sintetik tarzda yaratilgan. Biroq, shaxs rivojlanishining yaxlitligi dastlabki navbatda ta’lim jarayonining hayot bilan, ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligini nazarda tutadi.

Bu olimlarning amaliy tajribasidan shuni bilish mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatning shakllanishda integrativ yondashuv o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati uchun to‘liq sharoitlar yaratishga imkon beradi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini ham shakllantirishni ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam beradi.

Integrativ yonashuvning talablarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati va rolini aniqlash uchun birinchi navbatda integrallashgan darslarning mohiyatini va ulardan ta’limda foydalanish tajribasini aniqlab olish lozim bo‘ladi. Jumladan, pedagogika bo‘yicha olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarga, integratsiyalashgan darslarni tashkil etish va o‘tkazish bo’yicha tajribalarga ham tayaniladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda kreativ qobiliyatning shakllanishida integrativ yondashuvning ahamiyatini o‘qituvchi to‘laligicha tushunib, muammoning yechimiga, o‘quv materialini o‘rgatishga ijodkorona yondashmoqligi joizdir. Ularga mashg‘ulot mazmuni, o‘ziga xosligi, elastikligi, innovatsion mohiyatga egalik darajasi, shaxsga tomon yo‘naltirilganligi, ijodiy potensiali, shaxsning kreativ rivojlanmog‘i uchun istiqbolni belgilash singarilarni singdirishi zarur. Yana aytish kerakki, talabalarda kreativ qobiliyatni shakklanishida yuqori emotsional-ijobiy kayfiyat, ehtiyoj bo‘lishi, buning uchun ta’lim jarayonida zaruriy didaktik shart-sharoitlar ta’minlanishi ham shart. Buning uchun esa mashg’ulotlar mazmuni chuqur, jozibador, xotirada qolishi oson va qoladigan, talabalarning idrok qilish faoliyati esa rang-barang, ijodiy va reproduktiv bo‘lmog‘i darkor.

REFERENCES

1. Bakitovich, A. E. (2020). Practical forms and methods of" Improving environmental education technologies through protection of natural areas for students". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(6), 173-177.

2. Dilshoda Jalilova Ural qizi. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALASINING AHAMIYATI. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O‘QITISHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. 2023-yil 2-iyun (https://doi.org/10.5281/zenodo.7993607)
3. Jalilova D.U. Psychological And Technological Features of Increasing the Efficiency of Educational Activity of Talented Students in Presidential Schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367 (https://zienjournals.com)
4. Хожиева, З. У. (2017). РОЛЬ РЕФЛЕКСИИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (1-2 (17)), 7-9.
5. Ходжиева, З. У. (2016). ГУМАНИЗАЦИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-, 2016.
6. Қораев,С. (2016). Фанлараро узвийлик ва узаро алоқани таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари. *“Таълим, фан ва ннновация”*, *2*(2), 45- 50